Jinoyatchilik darajasining oshishi ortidan yuzaga kelgan ishonchsizlik muhitida ijtimoiy mobillik ham zaiflashadi. Jmiyat a'zolari o'z halol mehnati, zaruriy bilimlari, tashabbuskorligi orqali yuqori ijtimoiy maqomga erishish imkoniyatiga ishonmay qo'yadilar. Bu hol jamiyatda stagnatsiya holatini keltirib chiqaradi [7]. Jamiyatda jinoyatchilik darajasining oshib ketishi yosh avlod faoliyatiga, ayniqsa, jiddiy ta'sir ko'satadi. Ko'zlangan hayotiy maqsadlarga qonuniy yo'llar bilan erishish imkonsizligiga amin bo'lgan yigit va qizlar halol mehnat va bilim orqali muvaffaqiyatga yetishishga oshiqmay qo'yadilar. Bunday muhitda ular qonuniy yo'llar bilan yuqori maqomga yetishishga emas, tez boyishning noqonuniy usullariga moyil bo'lib boradilar.

Xulosa. Jinoyatchilik ijtimoiy institutlarning faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. U ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish tizimi kabi institutlar faoliyatini izdan chiqaradi. Jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan muhitda ta'lim muassasalari axloqiy va moddiy tanazzulga yuz tutadi. Masalan, ta'lim tizimida korrupsiyaning ildiz otishi bilim va malaka asosida emas, balki pora va tanish-bilishchilik orqali muvaffaqiyat qozonishni odatiy holga aylantiradi. Mazkur ijtimoiy illat iqtisodiyotning turli sektorlari uchun zarur bo'lgan kadrlar sifatini pasaytirib yuboradi. Tibbiy muassasalardagi korrupsiya, dori vositalarining noqonuniy aylanmasi, davlat mablag'larining manfaatdor shaxslar tomonidan talon-taroj qilinishi aholi salomatligiga to'g'ridan to'g'ri tahdid soladi. Huquqni muhofaza qilish organlaridagi adolatsizlik tizimning jinoyatlarga qarshi samarali kurashish qobiliyati susaytiradi. Bundan tashqari, jinoyatchilik ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). ООН: международная преступность зарабатывает $870 млрд в год.// www.bfm.ru, 2012, 16 июля.

(2). Подольный Н.А., Подольная Н.Н. Взаимосвязь уровня преступности и экономической пассивности населения на рынке труда. Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. "Общественные науки", 2018, № 1, 57–66 с.

(3). Муминов Н.Г. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари: назарий ёндашув. "Иқтисод ва молия", 2016, 8-сон, 1–7-бетлар.

(4). Злолтникова Е.В. Влияние организованной преступности на политическую безопасность Российской Федерации. Автореф. на соиск. уч. степ. канд. полит. н., М., МГОУ, 2011, с. 15–19.

(5). Спиркин А.Г. Философия. М., "Гардарики", 2006, с. 518.

(6). Anser M.K., Yousaf Z., Nassani A.A. et al. Dynamic linkages between poverty, inequality, crime, and social expenditures in a panel of 16 countries: two-step GMM estimates. Economic Structures 2020, № 9, p. 43.

(7). Гриненко И. Влияние организованной преступности на социальную структуру общества. "Закон и жизнь", 2013, № 10/2, 86–89 с.

Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li (Qo'qon universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi)

QADRIYATLAR TIZIMLI TUZILMA SIFATIDA: IJTIMOIY-MADANIY YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi ijtimoiy-madaniy tizim sifatida tadqiq etiladi. Maqolada qadriyat o'zaro iyerarxik munosabatlarga kirishuvchi element (component)lardan tashkil topgan tizimli tuzilma sifatida o'rganiladi. Tuzilmani tashkil etuvchi elementlar soha va yo'nalishlarga qarab farqlanadi hamda o'z navbatida ijtimoiy-madaniy jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Tizim doirasida qadriyatlar bir-biri bilan mos kelishi yoki, aksincha, zid bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, o'zbek tili, terminologik tizim, nutq, terminlar, qadriyat, tizim, tuzilma, iyerarxiya, o'zaro ta'sir, element, madaniy qadriyat.*

Эргашев Ойбек Кахрамонович (Университет Коканда, преподаватель кафедры социальных наук)

ЦЕННОСТИ КАК СИСТЕМНАЯ СТРУКТУРА: СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие ценности как социокультурной системы. Ценность изучается как системная структура, состоящая из элементов (компонентов), вступающих во взаимные иерархические отношения. Элементы, составляющие структуру, различаются в зависимости от области и направления и, в свою очередь, обладают социокультурно специфическими характеристиками. В пределах системы ценности могут быть взаимно совместимыми или, наоборот, противоречивыми.*

Ключевые слова: *английский язык, узбекский язык, терминологическая система, речь, термины, ценность, система, структура, иерархия, взаимодействие, элемент, культурная ценность.*

Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li (Kokand University, Teacher, Department of Social Sciences)

VALUES AS A SYSTEMATIC STRUCTURE: A SOCIO-CULTURAL PERSPECTIVE

Annotation. *This article examines the concept of value as a socio-cultural system. The article studies value as a systematic structure consisting of elements (components) that enter mutual hierarchical relationships. The elements that make up the structure vary depending on the field and direction and, in turn,*

possess socio-culturally specific characteristics. Within the system, values can be mutually compatible or, conversely, contradictory.

Keywords: *English language, Uzbek language, terminological system, speech, terms, value, system, structure, hierarchy, interaction, element, cultural value.*

Kirish. Qadriyat tushunchasi ijtimoiy va gumanitar fanlar doirasida keng miqyosda tadqiq etilgan bo'lsa-da, uning mazmuniy tuzilishi, mohiyati, tarkibiy qismlari va ijtimoiy-madaniy tizim sifatidagi xususiyatlari borasida tadqiqotchilar o'rtasida hanuz turli bahs-munozaralar mavjud. Buning asosiy sababi shundan iboratki, mazkur tushuncha yoki kategoriya turli fanlar uchun tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi va shu sababli uning mazmuni, strukturaviy belgilari hamda formal komponentlari muayyan fanlarning maqsad va vazifalariga muvofiq talqin etiladi. Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi tizim sifatida tahlil qilinib, uning tarkibiy komponentlari ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida yoritib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega. Unda muammo nazariy-metodologik yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: lingvistik tavsiflash, ijtimoiy-madaniy tahlil, umumlashtirish, sintez, deduksiya, induksiya va tahliliy ko'rib chiqish. Tadqiqotning maqsad va vazifalari aynan ushbu lingvistik va metodologik usullar yordamida amalga oshirildi.

Adabiyotlar sharhi. Iosif Dzyaloshinskiy va Mariya Pilgun fikriga ko'ra, qadriyatlar muayyan sohada o'ziga xos tuzilmani shakllantiruvchi tamoyillarni vujudga keltirishi mumkin. Ular mazkur hodisani biznes sohasi misolida quyidagicha izohlaydi: masalan, biznes subyektining vakolat doirasi uning ijtimoiy mas'uliyat doirasiga mos bo'lishi lozim. Qadriyat o'z tuzilmasiga ega bo'lib, ushbu tuzilma o'zaro ta'sirda bo'ladigan muayyan tamoyillardan tashkil topadi.

Professor Brayan Moeran qadriyatning baholovchi tabiatiga to'xtalar ekan, baholash jarayoni kim tomonidan, nimani, kim uchun, qachon, qayerda, qanday, nima sababdan va qanday sharoitda baholanishiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni, qadriyat "o'zgarmas xususiyat, narsaga xos bo'lgan sifat yoki obyektiv belgi emas, balki doimiy o'zgarib va o'zaro ta'sirlashib turuvchi ko'plab omillar ta'siri, yoki muayyan tizim mahsulidir" [1]. Ushbu fikrdan ko'rinadiki, qadriyatlar va ularning baholovchi xususiyatlari muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq holda shakllanadi.

Shvarts va hammualliflar o'z tadqiqotlari asosida qadriyatlar universal bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi, chunki ular inson mavjudligining uchta universal talabi bilan bog'liq: biologik organizm sifatida individ ehtiyojlari, muvofiqlashtirilgan ijtimoiy o'zaro ta'sir ehtiyojlari hamda guruhlarning yashab qolishi va farovonligiga oid ehtiyojlar. Har bir qadriyat ushbu uch talabdan biri yoki bir nechtasiga asoslanishi qadriyatlarning o'zaro munosabatlarini, bog'liqlik tamoyillarini va tizim sifatidagi xususiyatlarini belgilaydi [2]. Qadriyatlarning universal jihatlari ularni inson mavjudligining ijtimoiy hodisasi sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Iosif Dzyaloshinskiy va Mariya Pilgunning fikriga ko'ra, har qanday axloqiy tizim jamiyat tomonidan tan olingan asosiy qadriyatlarga tayangan holda shakllanadigan dinamik tuzilma hisoblanadi. Inson madaniyati obyektiv, iyerarxik tarzda tashkil topgan dunyo bo'lib, iyerarxiyaning har bir darajasida o'zaro qarama-qarshiliklarga ega [3]. Demak, qadriyatlar muayyan axloqiy tizimni shakllantiradi va bu axloqiy tizim, o'z navbatida, milliy madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu madaniyat milliy identitetni aks ettiruvchi iyerarxik tuzilma hisoblanadi.

Bundan tashqari, ularning fikriga ko'ra, shaxsning qadriyatlar tuzilmasini uch guruh elementlarga aj-ratish mumkin:

a) muayyan ijtimoiy-madaniy kontekst doirasidagi hodisa va obyektlar qadriyatlari;

b) moddiy yoki ma'naviy tuzilmalar bo'lib, katta hajmdagi ijtimoiy-madaniy mazmunni o'zida jamlaydigan standartlar (me'yoriy hodisalar, san'at asarlarining namunaviy shakllari va boshqalar);

d) shaxs mohiyatini va uning nima to'g'ri ekanligi haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi ideallar.

Demak, shaxsiy qadriyatlar tuzilmasi ijtimoiy-madaniy jihatdan o'ziga xos uch elementdan iborat: qadriyatlar, standartlar va ideallar.

Qadriyatlar tuzilmasi turli tamoyillarga asoslanishi mumkin:

a) qadriyatlar mansub bo'lgan obyektlarning subyekti yoki mazmuni (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy);

b) munosabatlar subyekti (jamiyat, sinf, ijtimoiy guruh, jamoa, shaxs) [4].

Ko'rinadiki, qadrlanayotgan obyektning mazmuni va munosabatlar subyekti qadriyat tuzilmasini belgilaydi. Bu holatda qadriyatlar obyekt mazmuniga ko'ra ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va axloqiy tuzilishga ega bo'ladi, munosabatlar mazmuniga ko'ra esa jamiyat, sinf, ijtimoiy guruh, jamoa va individual darajadagi tuzilmani tashkil etadi.

Demak, qadriyatlar tizimi qadriyatlar to‘plami va ular o‘rtasidagi munosabatlardan iborat. Muallif, shuningdek, qadriyatlar tizimidagi ayrim qadriyatlar o‘zaro ziddiyatli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Muallif mashhur olimlar tomonidan berilgan qadriyatlar tizimi ta’riflarini quyidagicha keltiradi:

a) Uilyams (1979) ta’rifi: “Qadriyatlar tizimi obyekt va harakatlarni tanlashda, nizolarni hal etishda, ijtimoiy sanksiyalarni qo‘llashda hamda tanlangan qarorlarni ijtimoiy va psixologik jihatdan asoslashda qo‘llaniladi; u talab va da’volarni aniqlash uchun foydalaniladigan tasdiqlangan me’yorlar majmuasidir”;

b) Rokich (1973) ta’rifi: “Qadriyatlar tizimi nisbiy ahamiyat uzluksizligi bo‘ylab joylashgan afzal ko‘rilgan xatti-harakatlar majmui bo‘lib, mavjudlikning usullari yoki yakuniy holatlariga oid barqaror e’tiqodlar yig‘indisidir” [5].

Ushbu ta’riflarga ko‘ra, qadriyatlar tizimi muayyan tartib, nizo, talab, da’vo, ijtimoiy sanksiyalarni qo‘llash, obyekt va xulq-atvorni tanlashda foydalaniladigan me’yorlar majmui bo‘lib, nisbiy xarakterga ega afzal xatti-harakatlar va e’tiqodlar to‘plamidir.

Tatyana V.Evsyukova qadriyatlar tizimi haqida fikr yuritar ekan, u ustuvorlik tamoyiliga asoslangan holda tashkil etilishi lozimligini ta’kidlaydi. Bu holat individual va ijtimoiy nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega. U blog-muloqotda qadriyatlar tizimini o‘rganar ekan, blog kommunikatsiyasidagi subyektiv aksiologik dunyo manzarasi o‘zini namoyon qilish, virtual “men” konsepsiyasini shakllantirish va kompensatsiyalash ehtiyojlarini qondiruvchi qadriyatlar majmuyi orqali ifodalanishini qayd etadi. Ushbu holat quyidagi qadriyatlar bilan belgilanadi: ustunlik, gedonizm, xavfsizlik, so‘z erkinligi, maxsus bilim, moddiy manfaat, o‘zini ro‘yobga chiqarish erkinligi, istalgan shaxsni shakllantirish [6].

Nataliya Zerkina qadriyatlar tabiatini, milliy, sinfiy va umuminsoniy, vaqtinchalik va abadiy, tabiiy (asl) va universal jihatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hamda universal qadriyatlarning ustuvorligini e’tirof etar ekan, izchil va tizimli muloqotni ta’kidlaydi [7]. Shunday qilib, qadriyatlar obyektiv voqelik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, muayyan tuzilmani shakllantiradi.

Natijalar va muhokama. Shunday qilib, olib borilgan tahlillar natijasida qadriyatlar tushunchasining tizim sifatidagi tuzilmasi quyidagi sxemalar orqali tavsiflanishi mumkin.

Xulosa. Qadriyatlar obyektiv borliq haqiqatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, muayyan tuzilmani shakllantiradi. Ushbu tuzilma e’tiqodlar, tamoyillar, standartlar, ideallar va strategiyalardan iborat bo‘lib, ijtimoiy-madaniy tuzilmani tashkil etadi. Tizimni tashkil etuvchi mazkur elementlar o‘zaro ierarxik munosabatda bo‘ladi va bu munosabatlar uyg‘un yoki ziddiyatli xarakter kasb etishi mumkin.

Qadriyatlar tizimi axloqiy tizimni shakllantirish orqali xalq madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u dinamik xususiyatga ega. Qadriyatlar tizimi universal va lokal darajalarga ega. Shuningdek, u ikki qatlamdan tashkil topadi: quyi (yadro) va yuza (periferik) qatlamlar. Agar asosiy (bazaviy, o‘zgarmas) qadriyatlar quyi qatlamda joylashgan bo‘lsa, o‘zgaruvchan va yangilanib boruvchi qadriyatlar yuza qatlamda mujassam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Moeran B. (2009). Notes for a theory of values. Creative Encounters, Copenhagen Business School.

(2). Dzialoshinskiy I., Pilgun M. (2015). Axiological foundations of business ethics in the post-socialist Russia: Intercultural context. International Journal of Economics and Financial Issues, 5(Special Issue), pp. 263–273.

(3). Wojewoda M. (2018). Axiology and the mortality of the human being. Ethics & Bioethics (in Central Europe), *8*(3–4), pp. 219–226.

(4). Zerkina N., Lomakina Y., Kostina N. (2015). Axiological linguistics and foreign language teaching. Procedia – Social and Behavioral Sciences, pp. 254–260. https://doi.org/[DOI agar mavjud bo‘lsa]

(5). Pauls R. (1990). Concepts of value: A multi-disciplinary clarification. Centre for Resource Management.

(6). Schwartz S.H., Melech G., Lehmann A., Burgess S., Harris M., Owens V. (2012). Refining the theory of basic individual values. Zurich Open Repository and Archive, University of Zurich, 74 p.

Kodirov Nodirbek Mamasoliyevich (Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

AXBOROT MADANIYAT GLOBALLASHUV TARIXINI DAVRLASHTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Maqola axborot madaniyatining globallashuv jarayonining tarixiy rivojlanishini davrlashtirishning asosiy tamoyillarini o‘rganadi. Davrlashtirish texnologik inqiloblar (yozuv, bosmaxona, ommaviy axborot vositalari, internet va sun’iy intellekt), ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va madaniy integratsiya omillari asosida amalga oshirilgan. Maqolada axborot madaniyatining globallashuvi bosqichlari – an’anaviy davrdan raqamli davrgacha tahlil qilinadi, shuningdek, milliy madaniyatlarning saqlanishi va yangi global informatsiya makonidagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *axborot madaniyati, globallashuv, davrlashtirish tamoyillari, tarixiy davrlar, informatsiya texnologiyalari, madaniy integratsiya, raqamli davr, milliy madaniyat.*